

**Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filialining 2021-yil I yarim yilligi ish rejasi  
HISOBOTI**

<b>I. Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filialining 2021 yil I yarim yilligidagi ustuvor vazifalar</b>				
<b>№</b>	<b>Vazifalar *</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Ijro uchun mas'ullar</b>	<b>Bajarilgan ishlar</b>
1.	Filial qoshida yangi tashkil etilayotgan Inkubatsion markaz (IT Park) faoliyatini tashkil etish uchun ajratilgan xonalarni tayyorlash, mebel va AKT vositalari bilan jihozlash chora-tadbirlarini ko'rish.	I yarim yillik	B.Sh.Sirojov, S.S.Ravshanov, A.Z.Zayniddinov, A.T.Norqobilov, A.S.To'raqulov	<p>2021-yil 26-mart kuni Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filialida Inkubatsiya markazining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Ochilish marosimida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Qashqadaryo viloyati hokimligi, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, viloyat oliy ta'lim muassasalari, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki, Shahrisabz shahar va tuman hokimligi, mutasaddi tashkilotlar mas'ul rahbarlari, faxriy mehmonlar va faol, iqtidorli talaba yoshlar ishtirok etishdi. Tadbirni jarayonida filial professor-o'qituvchilari va talabalari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari loyihalari va dasturiy ishlanmalar hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida olib borilayotgan ishlar taqdimoti ham bo'lib o'tdi.</p> <p>Inkubatsiya markazini tashkil etish maqsadida filial binosidan 140 m<sup>2</sup> maydon 3 ta xona ajratildi, 18-dona kompyuter, 1-dona video proyektor, mebel va inventarlar bilan jihozlandi, "Uztelecom" AK korxonasi tomonidan taqdim etilgan "Corporate 7" ta'rif rejasi bo'yicha optik tola orqali yuqori tezlikdagi Internet bilan ta'minlandi.</p> <p>Inkubatsiya markazining logotipi yaratildi.</p> <p>Inkubatsiya markazining rasmiy (it-park.stict.uz) veb-sayti yaratildi.</p> <p>Inkubatsiya markazidan samarali foydalanish maqsadida telegram (<a href="https://t.me/TKTIShahrisabzfilialiITpark">https://t.me/TKTIShahrisabzfilialiITpark</a>) hamda facebook (<a href="http://www.facebook.com/groups/tktishfitpark/">www.facebook.com/groups/tktishfitpark/</a>) kabi ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy kanallari faoliyati yo'lga qo'yildi.</p>
2.	Filialda "Vinochilik va oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi" bo'yicha o'quv-laboratoriya xonasini tashkil		B.Sh.Sirojov, S.S.Ravshanov, A.Z.Zayniddinov, A.T.Norqobilov	<p>2020/2021 o'quv yilida "Vinochilik va oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi" bo'yicha o'quv-laboratoriya xonasi tashkil etildi, ushbu o'quv-laboratoriya uchun kerakli jihozlar filial binosining 316-xonasiga o'rnatildi.</p>

	<p>etish va kerakli jihozlarni ta'minlash.</p>			<p>“Vinohilik va oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” bo'yicha o'quv-laboratoriya xonasi quyidagi laboratoriya jihozlari bilan ta'minlangan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- 1 dona quritish shkafi;</li> <li>- 2 dona 2 turdagi sentrfuga jihozi;</li> <li>- 1 dona suv hammomi;</li> <li>- 1 dona mikroto'qinli suv hammomi;</li> <li>- 1 dona tetrator;</li> <li>- 1 dona refektometr;</li> <li>- 1 dona so'nggi tipdagi kompyuterga o'rnatilgan mikroskop;</li> <li>- 1 dona spektrofotometr;</li> <li>- 1 dona yuqori aniqlikdagi suyuqlik xromatografiyasi;</li> <li>- 1 dona gaz xromatografiyasi;</li> <li>- 1 dona termostat;</li> <li>- 3 dona elektr plitkalar;</li> <li>- 2 dona analitik tarozilar;</li> <li>- 2 dona texnik tarozi;</li> <li>- turli ko'rinishdagi laboratoriya idishlar to'plami;</li> <li>- 20 dona 5 xil turdagi dozatorlar;</li> <li>- indikatorlar to'plami;</li> <li>- 2 dona pH metr;</li> <li>- 1 dona rotorli bug'latgich.</li> </ul> <p>Hozirgi kunda ushbu o'quv-laboratoriya xonasida kerakli jihozlardan foydalangan holda oziq-ovqat mahsulotlarining sifatlarini tekshirish va yaroqliligini aniqlash ishlari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga professor-o'qituvchilar ilmiy faoliyatini olib borishlari uchun ilmiy laboratoriya tekshirish ishlarini o'tkazishmoqda.</p>
3.	<p>Filialda professor-o'qituvchilarning salohiyatidan samarali foydalangan holda “2021-yil – Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” Davlat dasturidagi vazifalar hamda Davlat dasturining mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga chuqur</p>		<p>Sh.A.Mutalov, B.Sh.Sirojov, S.S.Ravshanov, H.Sh.Tilovov A.T.Norqobilov</p>	<p>Filialda professor-o'qituvchilarning salohiyatidan samarali foydalangan holda “2021-yil – Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” Davlat dasturidagi vazifalar hamda Davlat dasturining mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga chuqur singdirishga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uyushtirildi, jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- 2021-yil 19-may sanasida filialda navbatdagi o'quv yili uchun nomzodlarni tanlash sifatini oshirish maqsadida, Shahrisabz tuman xalq ta'limi bo'limi metodist-psixologi Ismatova Zamira tomonidan 11-sinf</li> </ul>

	singdirishga yoʻnaltirilgan maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar uyushtirish.			<p>oʻquvchilari oliygohga taklif etilib, ularni filialda yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida “Ochiq eshiklar kuni” boʻlib oʻtdi;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mart, aprel, may oylari davomida filial professor-oʻqituvchilari tomonidan talabalar uchun “Ochiq dars”lar tashkillashtirib berildi;</li> <li>- filialga biriktirilgan Kitob, Yakkabogʻ, Qamashi, Chiroqchi, Dehqonobod tumanlaridagi maktablarda filial professor-oʻqituvchilari tomonidan yuqori sinf oʻquvchilari uchun fanlardan master-klasslar tashkil qilindi;</li> <li>- 2021-yil may oyida Shahrisabz “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyida “Internet xalqaro tarmogʻidagi axborot xurujlari, kiberjinoatchilik va internetning yoshlar maʼnaviyatidagi salbiy taʼsiri” mavzusida davra suhbat boʻlib oʻtdi. Davra suhbatida filial “Axborot texnologiya”lari fani oʻqituvchisi Sarvar Toshev, Shahrisabz shahridagi ishsiz va band boʻlmagan aholini kasb-hunarga oʻqitish markazi “Axborot texnologiyalari” yoʻnalishi boʻlim boshligʻi Akbar Qodirovlar ishtirok etishdi.</li> </ul> <p>Shuningdek, Davlat dasturining 169-bandida keltirilgan “Rektor kubogi”, “Yilning eng faol yoshlar yetakchisi”, “Talabalar festivali”, “Intellectual oʻyinlar” haftaligi, “Yil talabasi” singari koʻrik-tanlov va musobaqalar filial yoʻnalishlar kesimida tashkil etildi. Gʻolib va sovrindorlar aniqlanib, ularga esdalik sovgʻalari topshirildi.</p>
4.	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 12-13 noyabr kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashriflari davomida berilgan topshiriqlari asosida 90-sonli yigʻilish bayonining 100-bandiga muvofiq Filialda Oliy taʼlim vazirligining Oliy taʼlim muassasalarini rivojlantirish jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan filialda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan “PT-Processing Technology” oʻquv-ilmiy ishlab chiqarish laboratoriyasi texnologiyalar liniyasi bilan jihozlash		Sh.A.Mutalov, B.Sh.Sirojov, S.S.Ravshanov, A.Z.Zayniddinov, A.T.Norqobilov	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 12-13 noyabr kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashriflari davomida berilgan topshiriqlari asosida 90-sonli yigʻilish bayonining 100-bandiga muvofiq Filialda Oliy taʼlim vazirligining Oliy taʼlim muassasalarini rivojlantirish jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan filialda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan “PT-Processing Technology” oʻquv-ilmiy ishlab chiqarish laboratoriyasi texnologiyalar liniyasi bilan jihozlash uchun ajratilgan binoni taʼmirlash uchun loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqildi hamda tanlov asosida 450 mln.soʻmlik mukammal taʼmirlash ishlari amalga oshirildi. Hozirda jihozlarni yetkazib beruvchi tashkilotlar takliflari oʻrganilmoqda.

	<p>uchun ajratilgan binoni ta'mirlash loyiha-smetasini ishlab chiqish, jihozlarni yetkazib beruvchi tashkilotlar takliflarini o'rganib, Oliy ta'lim vazirligiga taqdim etish.</p>			
5.	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga 2020-yil 29-dekabrda Murojaatnomasi bo'yicha <b>“Bir ziyoli bir mahallaga ma'naviy homiy”</b> tamoyili asosida mahallalarda targ'ibot tadbirlarini o'tkazish.</p>		<p>B.Sh.Sirojov, S.S.Ravshanov, O.X.Maxmudov, D.N.Temirov</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga 2020-yil 29-dekabrda Murojaatnomasi bo'yicha <b>“Bir ziyoli bir mahallaga ma'naviy homiy”</b> tamoyili asosida tadbirlar tashkil etish maqsadida, filial professor-o'qituvchilari Shahrisabz shahridagi mahallalarga biriktirilib, ular ishtirokida turli tadbirlar olib borildi, jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- TKTi Shahrisabz filiali hamda “Avazmalik” mahalla fuqarolar yig'ini bilan hamkorlikda joriy yilning 9-fevralda “Prezidentning 2021-yilga bag'ishlangan Oliy Majlisga va xalqqa yo'llangan murojaatnomasi” targ'ibot tadbiri bo'lib o'tdi. Unda filiali direktori prof. Sh.Mutalov, o'quv va tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari B.Sirojov, “Avazmalik” mahalla fuqarolar yig'ini raisi S.Bekdiyrov, “Avazmalik” mahalla fuqarolar yig'ini Oila xotin-qizlar va ijtimoiy ma'naviy masalalari bo'yicha rais o'rinbosari F.Mamanova, filial o'qituvchisi O.Sa'dullaevlar ishtirok etishdi.</li> <li>- “Bir ziyoli bir mahallaga ma'naviy homiy” tamoyili asosida S.S.Ravshanov boshchiligida Mirishkor tumanining Chandir qishlog'idagi barcha mahalla fuqarolar yig'ini ishtirokida ushbu qishloqdagi madaniyat uyida “Funksional oziq-ovqat mahsulotlari” hamda “Oziq-ovqat qo'shimchalarni inson salomatligiga ta'siri” bo'yicha taqdimot o'tkazildi. Shuningdek Chandir qishlog'ida 4 nafar maktabning iqtidorli o'quvchilari orasida biologiya, matematika, kimyo va fizika fanlari bo'yicha olimpiyada o'tkazilib, yuqori o'rinni olgan o'quvchilar Filialimiz tomonidan qimmatbaho sovg'alar bilan mukofotlandi;</li> <li>- TKTi Shahrisabz filiali hamda “Fayzobod” mahalla fuqarolar yig'ini bilan hamkorlikda joriy yilning 7-may sanasida “Bir ziyoli – bir mahallaga ma'naviy homiy” tamoyili asosida mahallada kitob o'qishni takomillashtirishni joriy etishga qaratilgan “Kitob mutolaasi - qalb ozuqasi” nomli tadbir tashkil etildi. Tadbirda o'quv va tarbiyaviy ishlar</li> </ul>

				bo'yicha direktor o'rinbosari B.Sirojov, sirtqi bo'lim boshlig'i Sh.Rahmonova, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi D.Temirov, Yoshlar ittifoqi yetakchisi U.To'rayeva, ARM rahbari Z. Pardayevlar ishtirok etishib, "Fayzobod" mahalla kutubxonasi uchun filial professor-o'qituvchilari tomonidan to'plangan 50 ga yaqin kitoblar jamlanmasini topshirildi;
--	--	--	--	--

## II. Oliy va o'rta maxsus ta'lim ta'lim vazirligining 2021 yil I yarim yilligi Ish rejasida belgilangan vazifalar

6. (2)	2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va oliy ta'lim muassasalariga yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash.	I yarim yillik	B.Sh.Sirojov, D.N.Temirov H.Sh.Tilovov	<p>2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida oliy ta'lim muassasalariga yuklatilgan vazifalar ijrosi bosqichma-bosqich amalga oshirilmogda.</p> <p>Dasturning 169-bandida keltirilgan "Rektor kubogi", "Yilning eng faol yoshlar yetakchisi", "Talabalar festivali", "Intellektual o'yinlar" haftaligi, "Yil talabasi" singari ko'rik-tanlov va musobaqalar filial yo'nalishlar kesimida tashkil etildi. G'olib va sovrindorlar aniqlanib, ularga esdalik sovg'alari topshirildi.</p> <p>Yurtimizda joylashgan sanoat korxonalarini uchun malakali kadrlarni tayyorlash, ishlab chiqarish korxonalarida talabalarning amaliyotlarini tashkil etish, professor- o'qituvchilarning stajirovkalari hamda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni yo'lga qo'yish maqsadida "Don Xalq rizqi" AJ, "Shahrisabz vino-arog" AJ, "Sho'rtangaz kimyo majmuasi" MCHJ, "Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi" UK, "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" MCHJ kabi hamkorlik shartnomalari tuzilib, korxonalar va filial rahbariyati o'rtasida muzokaralar olib borildi.</p> <p>Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning 1-yo'nalishi - yoshlarni musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarish uchun qulay sharoitlar yaratish yo'nalishi bo'yicha 2021-yil 11-fevral sanasida Shahrisabz shahar madaniyat markazida viloyat musiqali drama teatri san'atkorlari tomonidan sahnalashtirilgan "Bobomning orzusi" deb nomlangan spektakl namoyish etildi. Ushbu spektakl namoyishida Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filialining professor-o'qituvchilari hamda 320 nafar talabalari ishtirok etishdi.</p>
-----------	--	----------------	--	--

			<p>Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning 2-yoʻnalishi – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yoʻnaltirish yoʻnalishi boʻyicha filialda turli xil sport toʻgaraklari tashkil etilgan, jumladan, futbol, voleybol, shaxmat, stol tennisi kabi. Ushbu sport turlari boʻyicha filial talabalari oʻrtasida hamda professor-oʻqituvchilar oʻrtasida turli xil musobaqalar tashkil etilib kelinmoqda.</p> <p>2021-yil 3-fevral kuni filial professor-oʻqituvchilaridan va talabalaridan tuzilgan jamoalar, Namaton MFY, Pisandi MFY va Ipak yoʻli MFY jamoalari oʻrtasida voleybol musobaqasi oʻtkazildi. Qizgʻin va murosasiz kechgan bahslarda filial talaba-yoshlari jamoasi gʻoliblikni qoʻlga kiritishdi. Ipak yoʻli MFY jamoasi ikkinchi oʻrinni, Pisandi MFY jamoalari uchinchi oʻrinni egalladilar. Gʻolib va sovrindorlar diplom hamda qimmatbaho sovgʻalar bilan taqdirlandilar.</p> <p>Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning 3-yoʻnalishi – Aholi va yoshlar oʻrtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan yoʻnalishi boʻyicha filialning axborot texnologiyalari fani oʻqituvchilari J.Hamrayev, X.Yusupovlar tomonidan “kompyuter savodxonligi” toʻgaraklari yoʻlga qoʻyilgan. Filial qoshida yangi tashkil etilgan Inkubatsion markaz (IT Park)da filial talabalari AutoCAD, Python, va boshqa dasturlar boʻyicha oʻqitilmoqda.</p> <p>Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning 4-yoʻnalishi – yoshlar maʼnaviyatini yuksaltirish, ular oʻrtasida kitobxonlikni keng targʻib qilish boʻyicha tizimli ishlarni tashkil etishga yoʻnaltirilgan yoʻnalishi boʻyicha filialda 2021-yil 30-mart sanasida “ENG YAXSHI KITOBXON TALABA” tanlovi oʻtkazildi. Tanlovda faxrli 1-oʻrinni 12-20 guruh talabasi - Miraxmatova Gulnoz, 2-oʻrinni 20-20 guruh talabasi - Turdiyeva Sabina va 3-oʻrinni 24-20 guruh talabasi - Ergashev Aktamlar egallashdi. Tanlov gʻoliblari va ishtirokchilari filial maʼmuriyati tomonidan diplom hamda esdalik sovgʻalari bilan taqdirlandilar. Shuningdek, filialda Kitob yarmarkasi tashkil etilib kelinmoqda, filialga biriktirilgan mahallalar yoshlari uchun professor-oʻqituvchilar tomonidan toʻplangan kitoblar taqdim etildi.</p> <p>Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning 5-yoʻnalishi – xotin qizlarni ish bilan taʼminlash masalalarini nazarda</p>
--	--	--	--

			tutuvchi yo‘nalishi bo‘yicha filial talaba-qizlarining bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida filialda “ <b>Tikuvchilik</b> ” to‘garagi tashkil etilgan. “ <b>Qizlar klubi</b> ” faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.
7. (4, 5)	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev huzurida o‘tkazilgan majlislarda 2021-yil va kelgusi yillar uchun Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi va oliy ta‘lim muassasalariga yuklatilgan vazifalar ijrosini ta‘minlash.	Sh.A.Mutalov, B.Sh.Sirojov, S.S.Ravshanov, O.X.Maxmudov	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika hududlariga tashrifi mobaynida o‘tkazilgan majlislarida oliy ta‘lim muassasalariga yuklatilgan vazifalari guruh hamda kafedra majlislarida qolaversa filial kengashida doimiy muhokama qilinib boriladi.</p> <p>Yurtimizda joylashgan sanoat korxonalarini uchun malakali kadrlarni tayyorlash, ishlab chiqarish korxonalarida talabalarining amaliyotlarini tashkil etish, professor- o‘qituvchilarning stajirovkalari hamda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni yo‘lga qo‘yish maqsadida “Don Xalq rizqi” AJ, “Shahrisabz vino-aroq” AJ, “Sho‘rtangaz kimyo majmuasi” MCHJ, “Dehqonobod kaliyli o‘g‘itlar zavodi” UK, “Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MCHJ kabi hamkorlik shartnomalari tuzilib, korxonalar va filial rahbariyati o‘rtasida muzokaralar olib borildi.</p> <p>Xalqaro tashkilotlar tomonidan e‘lon qilingan tanlovlarda filial professor-o‘qituvchilaridan S.S.Ravshanov 14.06.2021 dan 02.07.2021 ga qadar Erasmus+ Mobility (KA107, Call 2018) by the University of Copenhagen loyiha doirasida Kopengagen unversitetida xizmat safarida bo‘lib keldi.</p> <p>Filialda talabalarni kelgusidagi kasbiy faoliyatga yo‘naltirish bo‘yicha sohaning yetakchi ish beruvchi korxonalarini vakillari bilan davra suhbatini bo‘lib o‘tdi. Jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- 2021-yil 18-mart sanasida Shahrisabz “Don xalq rizqi” aksiyadorlik jamiyati ishlab chiqarish bo‘yicha direktor o‘rinbosari M.Sh.Botirov, laboratoriya mudiri G‘.F.Taniev, filial direktori prof. Sh.A.Mutalov va talabalar ishtirokida davra suhbatini tashkil etildi;</li> <li>- 2021-yil 26-mart sanasida “Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi” mas‘ulyati cheklangan jamiyat o‘quv markazi vakillari bilan davra suhbatini bo‘lib o‘tdi. Davra suhbatida “Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi” mas‘ulyati cheklangan jamiyat o‘quv markazi boshlig‘i A.Q.Buxorov, korxonani kengaytirish loyiha muhandisi A.R.Abdiev va filialda tahsil olayotgan “Kimyoviy texnologiyalar”, “Texnologik mashina va jihozlar” ta‘lim yo‘nalishlari talabalari ishtirok etishdi.</li> <li>- 2021-yil 23-aprel sanasida Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahridagi “Shahrisabz “Vino-aroq” Aksiyadorlik Jamiyati” vakillari</li> </ul>

			<p>bilan davra suhbatida o'tkazildi. Ushbu davra suhbatida "Shahrisabz "Vino-aroq" Aksiyadorlik Jamiyati" ishlab chiqarish bo'yicha direktori G'ulomov Sa'dullo Imomovich, bosh texnolog Buzrukov Shuxrat Fozilovich, filialimiz direktori prof. Sh.A.Mutalov, dekan H.Tilavov, kengash kotibi J.Mirzayev hamda filial "Vinochilik texnologiyasi" ta'lim yo'nalishi talabalari ishtirok etishdi.</p> <p>- 2021-yil 27-aprel sanasida "Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi" mas'uliyati cheklangan vakillari bilan davra suhbatida o'tkazildi. Davra suhbatida "Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi" mas'uliyati cheklangan jamiyat yetakchi muhandisi J.Nurboev, filial direktori prof. Sh.Mutalov, TSNB boshlig'i M.Samadov, kengash kotibi J.D.Mirzaev, filialning "Kimyoviy texnologiyalar", "Texnologik mashinalar va jihozlar", "Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish" ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tahsil olayotgan talabalar ishtirok etdilar.</p> <p>- 2021-yil 25-may sanasida Shahrisabz "EAST AGRO International" MChJ vakillari bilan davra suhbatida o'tkazildi. Davra suhbatida TKTI Shahrisabz filiali direktori professor Sh.Mutalov, TSNQ bo'limi boshlig'i M.Samadov, kengash kotibi J.Mirzayev, Shahrisabz "EAST AGRO International" MChJ sex boshlig'i Xudoyqulov Rustam Baratovich, qishloq xo'jalik bo'limi boshlig'i Narzullayev A'zamxon Nosirovich, filial professor-g'qituvchilari, "Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi" ta'lim yo'nalishi talabalari ishtirok etishdi.</p> <p>O'tkazilgan davra suhbatida korxonalar tomonidan filial talabalariga ta'lim berishda ko'proq mutaxassislik fanlarini o'qitish, amaliy ishlarni ko'proq bajarish, sohaga oid bilimlarini rus va ingliz tillarida bayon etish ko'nikmalarini oshirish, kompyuter dasturlaridan ofis dasturlarini bilish ko'nikmalarini ko'proq oshirish yuzasidan takliflar bildirilgan.</p>
8. (6)	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va oliy ta'lim muassasalariga yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash.	Sh.A.Mutalov, B.Sh.Sirojov, S.S.Ravshanov, O.X.Maxmudov H.Sh.Tilovov	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir. Prezident murojaatnomasi mazmun-mohiyatini xalqqa yetkazish bo'yicha filialning rahbar xodimlari va professor-o'qituvchilari Qashqadaryo viloyatidagi Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' va boshqa tumanlaridagi mahallalarda, filialga birlashtirilgan maktablarda targ'ibot tadbirlarida faol ishtirok etishdi.



				<p>Jumladan, 2021-yil 3-fevral kuni TKTI Shahrisabz filiali hamda <b>“Kamolot”</b> mahalla fuqarolar yig‘ini bilan hamkorlikda “Prezidentning 2021-yilga bag‘ishlangan Oliy Majlisga va xalqqa yo‘llangan murojaatnomasi” targ‘ibot tadbiri tashkil etildi.</p> <p>2021-yil 9-fevral kuni TKTI Shahrisabz filiali hamda <b>“Avazmalik”</b> mahalla fuqarolar yig‘ini bilan hamkorlikda o‘tkazilgan “Prezidentning 2021-yilga bag‘ishlangan Oliy Majlisga va xalqqa yo‘llangan murojaatnomasi” targ‘ibot tadbiri o‘tkazildi.</p> <p>2021-yil 27-aprel kuni Shahrisabz shahar <b>“Bunyodkor”</b> mahalla fuqarolar yig‘iniga biriktirilgan TKTI Shahrisabz filiali assistent-o‘qituvchisi Toshev Sarvar Norboboyevich tomonidan “Prezidentning 2021-yilga bag‘ishlangan Oliy Majlisga va xalqqa yo‘llangan murojaatnomasi” ga bag‘ishlangan targ‘ibot tadbiri o‘kazildi.</p> <p>Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali Kitob tumani hokimligi bilan hamkorlikda <b>“Yangi O‘zbekiston-yangicha dunyoqarash”</b> shiori ostida targ‘ibot-tashviqot, ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi. Tadbirda Kitob tumanidagi 10-sonli musiqa va san’at maktabi zalida <b>Paxtaobod</b> mahalla aholisi bilan “Yangi O‘zbekiston-yangicha dunyoqarash” shiori ostida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi.</p> <p>2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalardan kelib chiqib har bir yo‘nalish bo‘yicha TKTI Shahrisabz filialida fan to‘garaklari, sport bo‘yicha to‘garaklar tashkil etilgan, talabalar o‘rtasida turli xil musobaqalar tashkil etilib kelinmoqda, talabalar ishtirokida ma’naviy-marifiy tadbirlar, davra suhbatlari tashkil etilib borilmoqda, talabalar va filial ishchi-xodimlari, professor-o‘qituvchilari uchun kitob yarmarkalari tashkil etilmoqda, shuningdek, talaba-qizlarining bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida filialda <b>“Tikuvchilik”</b> to‘garagi tashkil etilgan. <b>“Qizlar klubi”</b> faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika hududlariga tashrifi mobaynida o‘tkazilgan majlislarida oliy ta’lim muassasalariga yuklatilgan vazifalari guruh hamda kafedra majlislarida qolaversa filial kengashida doimiy muhokama qilinib boriladi. Jumladan, Yurtimizda</p>
--	--	--	--	--

				<p>joylashgan sanoat korxonalarini uchun malakali kadrlarni tayyorlash, ishlab chiqarish korxonalarida talabalarining amaliyotlarini tashkil etish, professor-o'qituvchilarning stajirovkalari hamda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni yo'lga qo'yish maqsadida "Don Xalq rizqi" AJ, "Shahrisabz vino-arog" AJ, "Sho'rtangaz kimyo majmuasi" MCHJ, "Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi" UK, "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" MCHJ kabi hamkorlik shartnomalari tuzilib, korxonalar va filial rahbariyati o'rtasida muzokaralar olib borildi.</p> <p>Xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan tanlovlarda filial professor-o'qituvchilaridan S.S.Ravshanov 14.06.2021 dan 02.07.2021 ga qadar Erasmus+ Mobility (KA107, Call 2018) by the University of Copenhagen loyiha doirasida Kopengagen unversitetida xizmat safarida bo'lib keldi.</p>
9. (9)	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son Qarorida oliy ta'lim muassasalariga yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash.</p>	12 aprel	<p>B.Sh.Sirojov, S.S.Ravshanov, D.N.Temirov</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori asosida oliy ta'lim muassasalariga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib 2021-yil davomida filialda ta'lim olayotgan talabalar uchun hamda ARM fondini boyitish maqsadida TKTI dan zarur o'quv adabiyotlari, darslik va o'quv qo'llanmalar olib kelindi.</p> <p>Filial axborot-resurs markazi bazasida mavjud darslik, o'quv-uslubiy va boshqa qo'llanmalar raqamli formatga o'tkazilib, ularning elektron platformasi shakllantirildi, shuningdek, ARM da mavjud barcha darslik, o'quv qo'llanmalar, badiiy adabiyotlar elektron (.pdf) formatga o'tkazilib, filial rasmiy veb-saytiga, telegram ijtimoiy tarmog'iga hamda Moodle platformasiga joylashtirildi.</p> <p>har bir fan kesimida ma'ruza, amaliy (seminar) va laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil ishlar bo'yicha elektron modullar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etish filial elektron ta'lim platformasi orqali amalga oshirib kelinmoqda. Har bir fan kesimida ma'ruza, amaliy (seminar) va laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil ishlar bo'yicha elektron modullar ishlab chiqilgan va talabalar foydalanishlari uchun taqdim etilgan.</p> <p>Filial professor-o'qituvchilar tomonidan o'zlariga tegishli fanlar kesimida har bir mavzu bo'yicha videodarslar tayyorlandi hamda filialning youtube (<a href="https://www.youtube.com/c/academiauz">https://www.youtube.com/c/academiauz</a>) ijtimoiy</p>

				<p>tarmog‘i kanaliga, Moodle platformasiga joylab borildi, shuningdek, kimyo, fizika fanlaridan amaliyot va laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish maqsadida talabalar uchun elektron ko‘rinishdagi laboratoriya ishlari yaratildi.</p> <p>filialga xorijiy talabalarni jalb etish maqsadida filial rasmiy veb-saytida turli e‘lonlar, ma‘lumotlar berib borilmoqda, hozirgi kunda 5320300 - Texnologik mashinalar va jixozlar (tarmoqlar bo‘yicha) yo‘nalishi bo‘yicha xorijiy talabalar uchun qabul kvotalari asosida qabul qilinishi belgilab olindi.</p>
10. (11)	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmonida oliy ta‘lim muassasalariga yuklatilgan vazifalarning o‘z vaqtida sifatli amalga oshirilishini ta‘minlash.</p>	I yarim yillik	<p>B.Sh.Sirojov, S.S.Ravshanov, O.X.Mahmudov A.T.Norqobilov</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni 10-bandiga muvofiq 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab filialga hujjat topshirgan umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari va kasb-hunar maktablari bitiruvchilarining shahodatnomasi (diplom ilovasi)ga majburiy 11 yillik ta‘limning so‘nggi 6 yillik baholari o‘rtacha ko‘rsatkichi asosida kirish imtihonlarida inobatga olinadi.</p> <p>2021-yil davomida filialda faoliyat yuritayotgan yosh professor-o‘qituvchilar o‘zlarining tashabbuslari bilan magistraturada ta‘lim olgan institutlarining professor ilmiy darajasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilari bilan ilmiy ish mavzularini tanlab olgan holda <b>mustaqil tadqiqotchilik</b> faoliyati bilan shug‘ullanishni boshlashmoqda.</p>
11. (26)	<p>Filialda ijro intizomi tahlili.</p>	may	<p>Sh.Sh.Shoyimov</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 9-avgustdagi 5017-F-sonli bo‘limlarda topshiriqlar ijrosini elektron nazorat qilish imkoniyati bo‘lgan “Ijro.gov.uz” elektron axborot tizimidan filialda foydalanilmoqda. IJRO.GOV.UZ ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimga direktor, direktor o‘rinbosarlari, ishlar boshqarmasi, devonxona mudiri hamda Monitoring ichki nazorat sektori boshlig‘i ulangan.</p> <p>Filialda yangi tarkibiy bo‘linmalarining tasdiqlanganligi, hujjatlarni elektron shaklda aylanishini imkonini beradigan IJRO.GOV.UZ ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi joriy etilganligini hisobga olinib, shuningdek, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2020-yil 28-martdagi “Norma ijodkorligi va byurokratik to‘siqlarni yanada qisqartirish to‘g‘risida”gi 240-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash</p>

				<p>maqsadida filialning 2020-yil 31-dekabrda 730-sonli buyrug‘i ilovasi bilan tasdiqlangan “Toshkent kimyo texnologiya institute Shahrisabz filialida ish yuritish va hujjatlar ijrosi nazoratini tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnomasi”si ishlab chiqilgan.</p> <p>Mazkur yo‘riqnomasi quyidagi hujjatlar talablariga muvofiq tuzilgan:</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-yanvardagi «Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 12-sonli qarori;</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 29-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo‘yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qarori;</p> <p>Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, xo‘jalik birlashmalari, ularning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida hujjatlar bilan ishlashni tashkil etish hamda ijro intizomining ahvoli monitoringini olib borish Tartibi (O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri tomonidan 2009-yil 28-avgustda 11-10-son bilan tasdiqlangan);</p> <p>O‘zDSt 1157-2008. USD SORD. Hujjatlarni rasmiylashtirishga bo‘lgan talablar;</p> <p>“O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi apparatida ish yuritish va hujjatlar ijrosi nazoratini tashkil qilish bo‘yicha 2015-yil 18-fevraldagi 58-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Yo‘riqnomasi”;</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabrda “Byurokratik to‘siqlarni yanada qisqartirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4546-son qarori;</p> <p>Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2020-yil 28-martdagi “Norma ijodkorligi va byurokratik to‘siqlarni yanada qisqartirish to‘g‘risida”gi 240-sonli buyrug‘i.</p> <p>Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali(tkti_shf)ga Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining <a href="http://www.infox.edu.uz">www.infox.edu.uz</a> portalidan hamda IJRO.GOV.UZ idoralararo yagona elektron hujjat aylanish tizimidan kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va bayonnomalari, topshiriqlari (yozma va og‘zaki), O‘zbekiston</p>
--	--	--	--	---

				<p>Respublikasi Prezidenti Kotibiyati, Prezident Adminstratsiyasi va Davlat maslahatchilarining topshiriqlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, yig‘ilishi va uning Rayosati bayonnomalari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Bosh vazir o‘rinbosarlari, Vazirlar Mahkamasi tarkibiy bo‘linmalari rahbarlarining topshiriqlari, vazirlik hujjatlari asosida belgilangan tartibda filial devonxonasiga kelib tushadi va devonxona mudiri ushbu hujjatlarni qayd etish kitobiga kirim qiladi.</p> <p>Devonxona mudiri kelib tushgan hujjatni direktor qabuliga IJRO.GOV.UZ idoralararo yagona elektron hujjat aylanish tizimi orqali kiritadi. Direktor hujjatning ijro etilishiga aniq ko‘rsatmalar rezolyutsiyalar belgilaydi. Nazorat kartochkalari elektron rasmiylashtirilgan zahoti ijrochilarga ushbu tizim orqali yetib boradi. Topshiriqlar nazorati va ular bo‘yicha barcha yozishmalar, so‘ralgan ma‘lumotlarning joylardan qabul qilib olinishi, ular bo‘yicha umumiy ma‘lumotlar shakllantirilishi hujjatni tayyorlagan rektorat va bo‘limlar tomonidan amalga oshiriladi.</p> <p>Devonxona mudiri Nazorat kartochkalarni Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-yanvar kungi 12-son “Ijro intizomini mustahkamlash to‘g‘risida”gi qaroriga ilova qilingan ASOSIY QOIDALARning 2-bobi asosida amalga oshiradi va “IJRO.GOV.UZ idoralararo yagona elektron hujjat aylanish tizimiga quyidagi nazorat kartochkalarni rasmiylashtiradi:</p> <p>1b nazorat kartochkalari - O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va bayonnomalari, topshiriqlari (yozma va og‘zaki), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenta Kotibiyati, Prezident Adminstratsiyasi va Davlat maslahatchilarining topshiriqlari.</p> <p>2b nazorat kartochkalari - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiniig qarorlari, yig‘ilishi va uning Rayosati bayonnomalari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Bosh vazir o‘rinbosarlari, Vazirlar Mahkamasi tarkibiy bo‘linmalari rahbarlarining topshiriqlari.</p> <p>3b nazorat kartochkalari - filial Kengashida qabul qilingan qarorlar, buyruqlar, nazorat rejalarining bandlari, tadbirlar va boshqa xususiy qarorlar.</p>
--	--	--	--	--

			<p>4b nazorat kartochkalari - Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining qarorlari, buyruqlari va topshiriqlari.</p> <p>Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrizabz filialiga 2021-yilning 6 oy davomida yuqori tashkilotlardan jami 800 hujjat kirim qilingan.</p> <p>Shundan:</p> <p>O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenta farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va bayonnomalari, topshiriqlari (yozma va og'zaki), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Kotibiyati va Davlat maslahatchilarining topshiriqlari bo'yicha 28 ta hujjat kelib tushgan.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, yig'ilishi va uning Rayosati bayonnomalari, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Bosh vazir o'rinbosarlari, Vazirlar Mahkamasi tarkibiy bo'linmalari rahbarlarining topshiriqlari bo'yicha 28 ta hujjat kelib tushgan.</p> <p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining qarorlari, buyruqlari va topshiriqlari bo'yicha 744 ta hujjat kelib tushgan.</p> <p>Yuqori tashkilotlardan kirim qilingan barcha hujjatlar belgilangan muddatlarda bajarilishi nazoratga olingan.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 6-apreldagi 3/2-son Hay'at qarori bo'yicha Vazirlik tomonidan so'ralgan ma'lumotlarni vaqtida taqdim etmaganligi uchun filiali direktorining 2021-yil 13-apreldagi 116-sonli buyrug'i asosida yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i D.N.Temirov og'zaki ravishda qat'iy ogohlantirildi va ushbu kamchilik takroran sodir bo'lishiga yo'l qo'yish holatlari kuzatilsa intizomiy chora ko'rilishi belgilab qo'yildi.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, ijrosi bo'yicha har oyda 1-, 2-jadval hisobotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi buyruqlari bajarilishi bo'yicha har chorakli hisobotlari elektron (pdf) shaklda OO'MTVning Ijro intizomini ta'minlash va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasining <a href="mailto:nazorat@edu.uz">nazorat@edu.uz</a> elektron pochta-siga yuborilmoqda.</p>
--	--	--	--

				<p>Shuningdek, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan filialga kirim qilingan Hay’at Kengashi qarorlari bandlarining ijrosi bo‘yicha har choraklik hisobotlar elektron (pdf) shaklda Hay’at kotibiyatining <a href="mailto:hayat@edu.uz">hayat@edu.uz</a> pochta-siga taqdim etilmoqda.</p> <p>“Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori (PQ-5132-son, 31.05.2021-y.) qabul qilindi. Qaror bilan ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha filialda yagona va uzluksiz “texnologik zanjir”ni tashkil qilingan bo‘lib, <a href="https://mf.ijro.uz">https://mf.ijro.uz</a> ijro intizomi yagona elektron tizimi orqali yuqori tashkilotlardan kelgan topshiriqlar va ularning ijrosi doimiy bajarilib kelinmoqda.</p>
12. (27)	Maktablar va filial xamkorligi natijadorligi tahlili.	may	B.Sh.Sirojov, S.S.Ravshanov, A.T.Norqobilov	<p>Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filialida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonida belgilangan vazifalardan kelib chiqib 2021-yilda Shahrisabz shahri, Shahrisabz va Kitob tumanlari Xalq ta’limi bo‘limlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari bo‘yicha shartnomalar imzolangan. Hamkorlik asosida Filial rahbariyati Shahrisabz shahri va Shahrisabz hamda Kitob tumanlaridagi bir qator umumta’lim maktablarida bitiruvchi 11-sinf o‘quvchilari bilan uchrashuvlar o‘tkazildi.</p> <p>2020-yilning 22-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari B.A.Musaev rahbarligida video aloqa tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli Farmoni hamda “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli qarori ijrosini belgilangan muddatlarda va sifatli ta’minlash yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishdan kelib chiqib, umumta’lim maktablarida ta’lim sifati va o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish va metodik qo‘llab-quvvatlash uchun Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidan 100, 156, Qamashi tumanidan 36, 69, Koson tumanidan 21, 98 va Dehqonobod tumanidan 57-sonli maktablar biriktirilgan. Ushbu umumta’lim maktablari bilan bir qancha ishlar</p>

				<p>amalga oshirildi. Maktablarda “Mo‘jizaviy kimyo” mavzusida filial o‘qituvchilari va talabalari tomonidan kimyo fanidan ko‘rgazmali laboratoriya ishlari namoyishlari o‘tkazildi.</p> <p>Filial rahbariyati va professor-o‘qituvchilari tomonidan umumta’lim maktab bitiruvchilari uchun TKTI Shahrisabz filialida mavjud yo‘nalishlar bo‘yicha targ‘ibot ishlari amalga oshirildi va 1000 dan ortiq bukletlar tarqatildi.</p> <p>Natijada 2021-2022 o‘quv yilida Chiroqchi tumanidagi 100-sonli maktabdan 5 nafar, 156-sonli maktabdan 2 nafar, Qamashi tumanidagi 36-sonli maktabdan 11 nafar, 69-sonli maktabdan 3 nafar, Koson tumanidan 21-sonli maktabdan 3 nafar, 98-sonli maktabdan 2 nafar va Dehqonobod tumanidagi 57-sonli maktabdan 3 nafar, jami 29 nafar o‘quvchilar OTM talabalik safiga qabul qilindi.</p>
13. (34)	<p>Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturi. (Vazirlar Mahkamasi Rayosatining 2020-yil 11-sonli majlisi bayoni).</p> <p><b>70-band</b>ida belgilangan vazifalar bo‘yicha filial professor-o‘qituvchilari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot natijalarini dunyo miqyosida namoyon etish, filial professor-o‘qituvchilari tomonidan Scopus, Science, Direst, Web of Science kabi halqaro jurnallarda chop etiladigan ilmiy maqolalar sonini 5 yillik istiqbolda 25 tadan kamida 150 tagacha o‘tkazish.</p>	I yarim yillik	S.S.Ravshanov, A.T.Norqobilov	<p>Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2020-yil 11-sonli majlisi bayoni <b>70-band</b>ida belgilangan vazifalar bo‘yicha filial professor-o‘qituvchilari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot natijalarini dunyo miqyosida namoyon etish, filial professor-o‘qituvchilari tomonidan Scopus, Science, Direst, Web of Science kabi halqaro jurnallarda chop etiladigan ilmiy maqolalar sonini 5 yillik istiqbolda 25 tadan kamida 150 tagacha o‘tkazish vazifasi asosida filial professor-o‘qituvchilari tomonidan Scopus ro‘yxatidagi ilmiy jurnallarda 9 ta, umume’tirof etilgan ilmiy jurnallarda 4 ta maqola chop etildi.</p> <p>2021-yil yakuniga qadar ushbu ko‘rsatkichlarni reja asosida yanada oshirib borish belgilab olindi.</p>
14. (52)	<p>Alisher Navoiy tavallud topgan 9-fevral sanasida filialda navoiyxonlik va adabiy kechalarni tashkil qilish.</p>	fevral	B.Sh.Sirojov, D.N.Temirov	<p>Filialda 2021-yil 9-fevral kuni Buyuk bobokalonimiz, she’riyat osmonining porloq quyoshi, xalq homiysi, davlat arbobi va buyuk shoir Mir Alisher Navoiyning 580 yilligiga bag‘ishlangan “<b>Nazm va navo</b>” kechasi tashkil etildi.</p> <p>Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “<b>Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib</b></p>



				<p><b>qilish bo'yicha</b>” tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan farmoyishida belgilab berilgan “Har bir eng oliy maqsad farzandlarimizni kitobga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadi”da <b>2021-yil 9-fevral</b> kuni noyob iste'dod soxibi ma'rifatparvar olim va davlat arbobi A.Navoiy tavallud topgan kuni 580 yilligi munosabati bilan filialda Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i D.N.Temirov hamda ARM xodimlari tashabbusi bilan <b>kitob yarmarkasi</b> bo'lib o'tdi.</p> <p>Barcha guruhlarda buyuk shoir Mir Alisher Navoiyning 580 yilligiga bag'ishlangan “<b>Axborot va murabbiylik soat</b>”larida davra suhbatlari tashkil etildi.</p> <p>Filial talabalari o'rtasida O'zbek mumtoz adabiyotining buyuk namoyondasi Alisher Navoiy tavalludi munosabati bilan <b>#Gazal_Challenge</b> tanlovi o'tkazildi. G'oliblar yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tomonidan taqdirlandi.</p>
15. (76)	Filial tarkibida qisqa muddatli kasb-hunar va chet tillariga o'qitish kurslari faoliyatini yo'lga qo'yish.	mart-avgust	B.Sh.Sirojov, H.Tilovov, A.T.Norqobilov	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-apreldagi 21-sonli yig'ilish bayonining 27-bandidagi Oliy ta'lim muassasalari rahbarlariga yuklatilgan topshiriq ijrosi bo'yicha <b>Toshkent-kimyotexnologiya instituti Shahrisabz filialida</b> Davlat xususiy sheriklik asosida ingliz va koreys tillarini o'rgatishga ixtisoslashgan “<b>Itto Kazunari</b>” xususiy korxonasi bilan tuzilgan shartnomaga asosan “<b>O'quv markazi</b>” tashkil etildi.</p> <p>Filialda zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan o'quv xonasi DXSh asosidagi o'quv markaziga ajratildi.</p> <p>O'quv markazida ingliz tilidan boshlang'ich va IELTS xalqaro sertifikatini olishga tayyorlov kursi faoliyat ko'rsatmoqda. O'quv markazida tashkil etilgan kurslarda filial talabalari bilan birga mahallalar yoshlari ham qamrab olingan.</p>
16. (81)	Filialda <b>fizika fani va chet tillari</b> bo'yicha uzluksiz ta'lim sifati va natijadorligini oshirish bo'yicha o'qitishni takomillashtirish. (PF-6155-5-band)	3 iyun	B.Sh.Sirojov, S.S.Ravshanov, H.Tilovov, A.T.Norqobilov	<p>Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filialida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son qarori bilan tasdiqlangan “2021-2023-yillarda fizika fanlari bo'yicha ta'lim sifati oshirish va fizika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning natijadorligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”ning 34-bandi topshirig'i ijrosi yuzasidan talabalar va doktorantlarni sohaga oid ilmiy tadqiqotlarga faol jalb etishga sharoitlar yaratish, ularning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida muvaqqat ilmiy jamoa</p>

				<p>tashkil etildi. Ushbu jamoa texnika yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalarida fizika fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishdagi muammolari va ularning yechimiga yangicha yondashuv yo‘nalishida tadqiqotlar olib bormoqda.</p> <p>Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali ma‘muriyati Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 18 avgustdagi 3119-18/08-147-sonli xatiga javoban Filialda magistratura va doktoranturaga kiruvchi talabgorlar uchun xorijiy tillarni o‘rgatish maqsadida “ITO KAZUNARI” til o‘rgatish markazi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. O‘quv kurslarida dars mashg‘ulotlarini olib borish uchun tajribali mutaxassislar jalb qilindi hamda mashg‘ulotlarni sifatli tashkil etish bo‘yicha tegishli choralar belgilab olindi.</p>
17. (86)	<p><b>“Bir million dasturchi”</b> loyihasi doirasida filialda inkubatsiya markazini tashkil etgan holda talabalarni dasturlash tillarini o‘zlashtirishga qiziqtirish orqali ularni ish bilan ta‘minlash tizimini yo‘lga qo‘yish. (DD-158-band)</p>	Yil davomida	B.Sh.Sirojov, H.Tilovov, A.S.To‘raqulov, A.T.Norqobilov	<p>Qashqadaryo viloyatidagi oliy ta‘lim muassasalarida Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (IT-park) Inkubatsiya markazlarini tashkil etish hamda ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 2020-yil 30-noyabrda tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”ning 2.3-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida, 2021-yil 26-mart kuni Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filialida Inkubatsiya markazining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.</p> <p>Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filialida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 19-oktabrdagi 2/11-19/10-111-sonli xatiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining maslahatchisi tomonidan 2021-yil 15-fevralda 08/1-34-son bilan tasdiqlangan “Bir million dasturchilar” loyihasida 2021-2022 yillarda 300 ming nafar yoshlarni kompyuter dasturlash asoslariga bepul o‘qitish bo‘yicha sohaga qiziqadigan yoshlarni aniqlash, o‘qitish va ish bilan ta‘minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturining 3-bandida “Bir million dasturchilar” loyihasi doirasida muvaffaqiyatli bitirgan oliy ta‘lim, o‘rta maxsus, professional ta‘lim muassasalari o‘quvchilarini axborot texnologiyalari sohasidagi fanlar bo‘yicha mustaqil ish sifatida joriy qilingan baholash tizimi orqali loyihaga jalb qilish vazifasi belgilangan.</p> <p>Filialda “Bir million dasturchilar” loyihasi doirasida o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli bitirgan talabalarining mustaqil ishi sifatida tasdiqlangan hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2020-yil 10-noyabrdagi 87-03-4555-sonli xatiga asosan ta‘lim jarayoniga joriy etilgan.</p>

				<p>Joriy yilda filialda 1000 nafardan ortiq talabalar “Bir million dasturchilar” loyahasiga a’zoligi ta’minlandi. 800 nafardan ortiq talabalar “Bir million dasturchilar” loyihasi bo’yicha kurslarni muvaffaqiyatli tamomlab, loyiha doirasida ishtirokchi hamda bitiruvchi sertifikatlari sohiblari bo’lishdi.</p> <p>Ushbu talabalar orasidan iqtidorlilari tanlab olinib, “Bir million dasturchilar” loyihasi asosida o’tkaziladigan tanlovlarga ishtirok etishlari uchun tayyorgarliklari bo’yicha alohida professor-o’qituvchilarga birlashtirildi.</p>
18. (90)	<p>Filialda ilmiy faoliyat bilan shug’ullanib kelayotgan iqtidorli talabalarni qo’llab-quvvatlash, ilm-fanga keng jalb qilish, ularning ilmiy salohiyatini oshirish orqali ularning <b>ilmiy va startap loyihalarini moliyalashtirishga</b> tavsiya etish. (DD-166-band)</p>	may	<p>B.Sh.Sirojov, S.S.Ravshanov, H.Tilovov</p>	<p>Filialda tahsil olayotgan iqtidorli talabalar bilan bir qancha ishlar olib borildi. Iqtidorli talabalarni ilmiy faoliyatga, har xil tanlovlar, yosh olimlar ilmiy-amaliy loyihalari va ilmiy anjumanlarda ishtirok etishlariga qiziqtirish va ularni bu borada kengroq jalb qilish ishlariga e’tiborni qaratildi. 51 nafar iqtidorli talabalar ajratib olindi va ularning turli konferensiyalarda ilmiy maqolalar bilan ishtirok etishlariga ko’maklashildi.</p> <p>2021-2021 o’quv yilida filial talabalari ilmiy ishlarga jalb qilindi, nufuzli tanlovlarda ishtirokni ta’minlash maqsadida bir qator to’garaklar, konferensiyalar tashkil etildi.</p> <p>Joriy yilning aprel oyida Toshkent kimyo-texnologiya instituti hamrohligida TKTI Shahrisabz filialida ilmiy jamiyati konferensiyasi o’tkazildi.</p> <p>Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filialida 2021-yil fevral oyida yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini ro’yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, yoshlarning innovatsion g’oyalari va Startap biznes loyihalarini rag’batlantirish va rivojlantirishni qo’llab-quvvatlash maqsadida. Qashqadaryo viloyatining hududiy menedjeri Bunyod Qutbiddinov tomonidan talabalar uchun startap loyihalar, Inkubatsion markaz bo’yicha master klass o’tkazildi.</p> <p>Filialda IT mutaxassislari, ilmiy tashkilotlar olimlari va mutaxassislarni jalb qilgan holda, talabalar uchun “startap loyihalarni rivojlantirish” yo’nalishi bo’yicha “Startup Prep”, “Startup Advice”, “Startup loyihaning 12 bosqichi” va shu kabi seminar-treninglar tashkil etilib, istiqbolli “Online usta”, “Golden House” va “Be Creator” nomli startap loyihalarini yaratishga erishildi.</p>

				Filialda sovrin jamg'armasi yaratilgan holda "IT Startup of the year" talabalar tanlovi 2021-yil dekabr oyida o'tkazilishi rejalashtirilgan.
19. (93)	"Yilning eng faol yoshlar yetakchisi", "Yil sardori", "Talabalar festivali", "Yil talabasi" singari ko'rik-tanlov va musobaqalarda filial talabalarining faol ishtirokini ta'minlash. (DD-169-band)	Yil davomida	B.Sh.Sirojov, H.Tilovov, D.N.Temirov	<p>O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 9-noyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida "Yil talabasi – 2021" Respublika tanlovini yuqori saviyada o'tkazish to'g'risida"gi 470-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash hamda filialda "Yil talabasi – 2021" Respublika tanlovi filial bosqichini o'tkazish maqsadida Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali direktorining 2021 yil 11-noyabrdagi 263-sonli buyrug'i ishlab chiqildi. Tanlov Nizomiga kiritilgan o'zgartirishlardan kelib chiqqan holda 7 nominatsiyasidan 3 ta nominatsiyaning har biri bo'yicha g'olib bo'lgan ishtirokchilar (3 nafar) to'g'risidagi ma'lumotlar yig'ma jildi joriy yil 1-dekabr gacha Vazirlik Tashkiliy qo'mitasiga taqdim etildi. "Yil talabasi-2021" Respublika tanlovining 2021-yilning noyabr oyida o'tkazilgan filial bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan talabalarga bazaviy hisoblash miqdorining 8 baravari miqdorida rag'batlantirish berildi.</p> <p>Filial yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilot yetakchisi U.S.Turayeva "Yoshlar yetakchisi saylovi-2021" saylovida nomzodi qo'yilgan 3 nafar nomzodlar orasidan g'oliblikni qo'lga kiritdi va filial Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi lavozimiga taynlandi. Filialda Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi va sanoat uzumchiligi fakulteti bo'yicha "Yilning eng faol yoshlar yetakchisi" tanlovida filialning 2-bosqich talabasi B.Jalilov munosib deb topildi va diplom va estalik sovg'alar bilan taqdirlandi.</p> <p>Filialda talabalarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda intellektual bilim salohiyatlarini rivojlantirish maqsadida "Zakovat" intellektual bilimdonlar o'yini, "Huquq bilimdonlari" "Yosh kimyogarlar" intellektual o'yinlari muntazam tashkil etilib kelinmoqda.</p>
20. (94)	O'zbekiston talabalar assotsiasiyasiga filial talabalari orasidan a'zo bo'ladigan talabalarni ajratib olish va a'zolarini ta'minlash. (DD-171-band)	Yil davomida	B.Sh.Sirojov, H.Tilovov	2021-yil yanvar oyida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Samarqand viloyati hokimligi, Adliya vazirligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda Samarqandda O'zbekiston talabalar assotsiasiyasi tashkil etildi. Shu bois Samarqand davlat universitetida assotsiasiyaning birinchi ta'asis forumi bo'lib o'tdi. Onlayn-muloqot tarzida tashkil etilgan tadbirda mahalliy oliy ta'lim muassasalaridan tashqari, Osiyo universitetlari assotsiasiyasi, Xalqaro ipak yo'lida

				<p>joylashgan universitetlar assotsiatsiyasi, Yevroosiyo universitetlari assotsiatsiyasi vakillari, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Niderlandiya, Rossiya, Hindiston, Afg'oniston, Isroil, Turkiya, Belarus, Vengriya kabi davlatlarning talaba-yoshlari ishtirok etdi. Assotsiatsiyani tashkil etishdan asosiy maqsad, O'zbekiston OTMLari talabalarini qiziqish va ehtiyojlariga qarab, jamoatchilik boshqaruvi asosida birlashtirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, yuksak ma'rifatli, bilimdon mutaxassislar bo'lib yetishishlari yo'lida qo'llab-quvvatlashdan iborat. Forumda O'zbekiston talabalari assotsiatsiyasini tashkil etish masalasi onlayn so'rovnoma orqali ovozga qo'yildi. Unda ishtirok etganlarning deyarli barchasi Samarqand davlat universiteti huzurida O'zbekiston talabalari assotsiatsiyasini tashkil etishni yoqlab ovoz berdi. TKTi Shahrizabz filiali talabalariga Samarqandda tashkil etilgan O'zbekiston talabalari assotsiatsiyasi haqida ma'lumotlar berildi. Ushbu assotsiatsiyaga har bir talaba ixtiyoriv ravishda a'zo bo'lishlari mumkinligi bildirildi.</p>
21. (95, 102)	<p>Fialda talabalarning xorijiy tillarni o'rganishlari uchun yanada kengroq imkoniyat yaratish maqsadida bepul <b>til o'rganish kurslarini</b> tashkil etish va <b>o'qitish tizimini</b> takomillashtirish. (DD-175-,227-band)</p>	Yil davomida	B.Sh.Sirojov, H.Tilovov, A.T.Norqobilov	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-apreldagi 21-sonli yig'ilish bayonining 27-bandidagi Oliy ta'lim muassasalari rahbarlariga yuklatilgan topshiriq ijrosi bo'yicha Toshkent-kimyo-texnologiya instituti Shahrizabz filialida Davlat xususiy sheriklik asosida ingliz va koreys tillarini o'rgatishga ixtisoslashgan "Ito Kazunari" xususiy korxonasi bilan tuzilgan shartnomaga asosan "O'quv markazi" tashkil etildi.</p> <p>Fialda zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan o'quv xonasi DXSh asosidagi o'quv markaziga ajratildi.</p> <p>O'quv markazida ingliz tilidan boshlang'ich va IELTS xalqaro sertifikatini olishga tayyorlov kursi faoliyat ko'rsatmoqda. O'quv markazida tashkil etilgan kurslarda filial talabalari bilan birga mahallalar yoshlari ham qamrab olingan.</p> <p>Fial rus tili fani o'qituvchisi M.Berdirasulova tomonidan tashkil etilgan o'quv kursda 28 nafar talabalarimiz rus tilini o'rganishmoqda.</p>
22. (99)	<p>Aholini ommaviy sportga keng jalb qilish orqali 2021-yilda yaqin hududdagi aholini jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilar gamrovini oshirish.</p>	Yil davomida	B.Sh.Sirojov, N.Raxmatov, A.Sattorov	<p>2021-yil 3-fevral kuni filial professor-o'qituvchilaridan va talabalaridan tuzilgan jamoalar, Namaton MFY, Pisandi MFY va Ipak yo'li MFY jamoalari o'rtasida voleybol musobaqasi o'tkazildi. Qizg'in va murosasiz kechgan bahslarda filial talaba-yoshlari jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritishdi. Ipak yo'li MFY jamoasi ikkinchi o'rinni, Pisandi MFY</p>

	(DD-207-band)			<p>jamoalari uchinchi o‘rinni egalladilar. G‘olib va sovrindorlar diplom hamda qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirladilar.</p> <p>Filialda 2021-yil 19-fevral kuni Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filiali hamda Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali jamoalari, Xalq ta‘limi murabbiylar jamoasi, Namaton MFY jamoalari hamkorligida “Sportni sev, sport bilan yasha” shiori ostida basketbol musobaqasi tashkil etildi. Oliyog‘hlararo ushbu musobaqaning final bosqichida TKTI Shahrisabz filiali basketbol jamoasi 19:4 hisobida g‘alaba qozonishdi. Mahallalararo esa Xalq ta‘limi murabbiylar jamoasi 1-o‘rin, 14-maktab jamoasi 2-o‘rin va Namaton MFY jamoasi 3-o‘rinni qo‘lga kiritishdi.</p> <p>2021-yilning 5-may kuni Shahrisabz shahrining “Xisor” o‘yingohida Shahrisabz shahri va tumanidagi mahallalarning, 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan uyushmagan yoshlari o‘rtasida futbol musobaqasi bo‘lib o‘tdi. “Sportni sev, sport bilan yasha” shiori ostida o‘tgan “Qashqadaryo kichik olimpiya sport o‘yinlari” musobaqasida oliygohlar va mahallalar hamkorligi doirasida TKTI Shahrisabz filiali futbol jamoasi hamda 9 ta mahalla jamoalari ishtirok etdi. Qizg‘in va murosasiz o‘tgan bellashuvlarning so‘nggi yarim finalida “Qo‘shchinor” MFY, “Ipak yo‘li” MFY, “Xontepa” MFY va TKTI Shahrisabz filiali futbol jamoalari bahslashishdi. Final bahsida “Qo‘shchinor” MFY jamoasi “Ipak yo‘li” MFY jamoasi ustidan 2:0 hisobida ustun kelib, musobaqa g‘olibiga aylandi. 2-o‘rinni “Ipak yo‘li” MFY jamoasi, 3-o‘rinni esa TKTI Shahrisabz filiali jamoasi egalladi.</p>
23. (110)	Nufuzli xorijiy universitetlar, ilmiy va innovatsion markazlar bilan aloqalarni kuchaytirish, ular bilan <b>kadrlar tayyorlash bo‘yicha hamkorlikni yanada kuchaytirish.</b> (DD-239-band)	Yil davomida	S.S.Ravshanov, O.X.Maxmudov, A.T.Norqobilov	<p>2020-2021 o‘quv yiliga barcha ta‘lim yo‘nalishlari uchun o‘quv fanlarni optimallashtirish, ilg‘or xorijiy OTMlarning qiyosiy tahlili natijasida o‘quv rejalarini qayta ishlab chiqish, kadrlar iste‘molchilari bilan kelishish ishlari yo‘lga qo‘yildi va kafedra bilan muhokama qilindi.</p> <p>Yil oxirigacha xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda ilmiy va innovatsion faoliyat yuzasidan aloqalarni kuchaytirish bo‘yicha taklif xatlari tayyorlanib yuborilishi ko‘zda tutilgan.</p>
24. (111)	Filialning iqtidorli talabalari va professor-o‘qituvchilarini ilmiy ishlar bilan shug‘ullanishlari uchun Toshkent kimyo-texnologiya institutidagi oliy ta‘lim	Yil davomida	S.S.Ravshanov, X.L.Po‘latov	Filialning iqtidorli talabalari va professor-o‘qituvchilarini ilmiy ishlar bilan shug‘ullanishlari uchun Toshkent kimyo-texnologiya institutidagi oliy ta‘lim muassasalararo Ilmiy-tadqiqot laboratoriyasiga yuborish bo‘yicha ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, kimyo va fizika

	muassasalariaro Ilmiy-tadqiqot laboratoriyasiga yuborish.			fanlari yuzasidan bir qator iqtidorli talabalar va professor-o'qituvchilar yuborildi va ularga qulayliklar yaratib berildi. Kelgusida ham muntazam ravishda Toshkent kimyo-texnologiya institutidagi oliy ta'lim muassasalariaro Ilmiy-tadqiqot laboratoriyasiga iqtidorli talabalar va professor-o'qituvchilarni ilmiy ishlar bilan shug'ullanishlari uchun yuborish rejalashtirilgan.
25. (114)	Fizika bo'yicha oliy ta'lim muassasalari talabalar o'rtasida o'tkaziladigan <b>Ahmad Al-Farg'oniy nomidagi xalqaro fan olimpiadasiga</b> filial talabalarini tayyorlash va faol ishtirokini ta'minlash.	iyun-iyul	B.Sh.Sirojov, H.Tilovov, A.T.Norqobilov	Fizika fani bo'yicha oliy ta'lim muassasalari talabalar o'rtasida o'tkaziladigan Ahmad Al-Farg'oniy nomidagi xalqaro fan olimpiadasiga filial talabalarini tayyorlab, filialda 1-bosqich tanlovlari o'tkazildi. Tanlov natijalari asosida keyingi bo'ladigan xalqaro fan olimpiadasiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilandi.

**Toshkent kimyo-texnologiya instituti**  
**Shahrisabz filiali direktori**



**Mutalov Sh.A.**